

O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQ MALAKASINI MATN VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mohira Yerjanova

Amudaryo tumani 85-sonli maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12598225>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini o'stirishning ilmiy-nazariy asoslari borasida atroflicha fikr-mulohazalar yurtiladi. turli xil didaktik o'yinlar va ularni ta'lif jarayonida maqsadli qo'll'ashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: Matn, nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin.

METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' CONNECTED SPEAKING SKILLS THROUGH TEXT

Abstract. In the article, there are detailed opinions about the scientific-theoretical basis of developing students' connected speech skills in primary school students through the medium of text. various didactic games and interactive aspects of their purposeful use in the educational process were studied.

Key words: Text, speech, skill, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, pronunciation, interpretation.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СВЯЗАННОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ТЕКСТ

Аннотация. В статье изложены подробные мнения о научно-теоретических основах развития навыков связной речи у младших школьников посредством текста. изучались различные дидактические игры и интерактивные аспекты их целенаправленного использования в образовательном процессе.

Ключевые слова: Текст, речь, умение, анализ, метод, воображение, интерактив, педагогическая технология, произношение, интерпретация.

Nutqiy faoliyat bilan bog'liq tadqiqotlarda keltirilishicha: "Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir, o'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lif olish vositasidir. Bolani kichik yoshidanoq ravon gapirishga o'rgatish lozim. O'quvchilar nutqini o'stirish uchun o'qituvchilar o'quvchilar nutqning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilish va bog'lanishli nutqini aktiv o'zlashtirishga yordam beradigan metod va usullardan foydalanishi kerak bo'ladi" [1].

Uzluksiz ta'lif tizimida o'quvchi qobiliyat va imkoniyati, o'ziga xos individual psixik xususiyatlari va ijodiy-ilmiy layoqatini yaxlit holda malakaviy jihatdan shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma orasidagi munosabat uzvyligini hosil qilish aynan mutaxassisdan maxsus tayyorgarlik taqozo qiladi. Binobarin, «muvaqqat asab rishtalari hayvonot olami va insonda mavjud universal fiziologik hodisa sanaladi. Ayni paytda, joriy holat psixologik mohiyatga intiladi: tasavvur, taassurot hamda tafsilotlararo uyg'unlik jozib assotsiatsiyani jilvalantiradi»[2]. Unda so'z va tushuncha, tuyg'u va mushohada, tasvir va tahlil o'rtaida muayyan bog'lanish darajasi hosil bo'ladi. To'g'rirog'i, ifoda hamda yozuv

muntazamligi shaxs ma'naviyati va ma'rifatini birlashtirish kafolati, bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan layoqat nutqiy faoliyatga tutashadi. SHu ma'noda, onglilik va faollikni bir-biriga aloqalantirish ijodiy uzvlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. O'qitish uslubiyatida izchillik matn yordamida amalga oshishini hisobga olsak, masala mohiyati oydinlashadi.

Matn – kitobxonga ta'sir o'tkazishning eng qulay va samarador vositasi, unda inson og'zaki hamda yozma nutq uzlusizligini mustahkamlash imkoniyati mavjud. Binobarin, ma'no butunligida «intellekt ruhiyat hamda dunyoqarash jipsligini»[3]. tayin etadi. Jarayon bir nechta bosqichdan iborat: axborot darajasi, nazariy ma'lumot miqyosi, til amaliyotini o'zlashtirish sajiyasi, mustaqil fikrlash madaniyati. Aslida joriy qatlamlar har bir talabada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Idrok etish mezoni va ma'rifiy ilg'am tafovuti inson dunyoqarashida o'zgachalanadi. To'g'rirog'i, o'qituvchi har bir yigit-qizning ham nazariy bilim malakasi, ham amaliy lug'at jamg'armasini nazorat qiladi.

Matn – mustaqil ijodiy jarayon hosilasi, u mashg'ulotlararo aloqani tiklaydigan universal mohiyatga daxldor. To'g'rirog'i, ketma-ketlikda amalga oshiriladigan qutb dars maqsadini tasavvur qilishga zamin hozirlaydi. Aslida materialni bilish va o'zlashtirish boshqa-boshqa hodisalar, ularni hatto teskari proporsional holat sifatida baholash mumkin. Biroq ta'lim tizimi bir-biriga bog'liq ikki bosqichni yaxlit holda o'rganishni tavsiyalaydi. O'z o'rnida, talaba qiziqish doirasi, ichki manfaatdorligi, faoliyat yo'nalishi, nutqiy omilkorligi hamda dunyoqarash xoslanganlik darajasi tiynati tugal butunlikni mantiqan to'ldiradigan ichki hamda tashqi omillarni hisobga olish masala mohiyatini to'g'ri yechish uchun shart-sharoitlar hozirlaydi.

Bog'langan nutq murakkab jarayon sanalib, u ichki qatlama va shamoyillar mushtarakligini dalolatlaydi. SHaxsni yuksak insonparvarlik hamda vatanparvarlik hissida tarbiyalash, ma'naviya-ma'rifiy ilg'amni yetakchi o'ringa ko'tarish, tahlil teranligi va tasvir tiniqligini markazlashtirish istiloh tabiatini tavsiflaydi. SHu ma'noda, badiiy nutq mohiyati og'zaki va yozma bayon mushtarakligini birlashtiradi. Unda material mohiyati va xarakteri maqsadga uyushadi. Uyushiq a'zolar tizimi mantiqiy bosqichlarni boshqaradi. To'g'ri, matn tanlovi mutaxassis tayyorgarligi, bosqich va qismlar orasidagi munosabat aloqadorligi, mutolaa va yozuv ziddiyatini umumlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Negaki, matn – ijodiy yondashuv samarasi, unda anglash o'ziga xosligi hamda o'zlashtirish falsafasi bir-biri bilan konfliktga kirishadi. Binobarin, odamzod bilim saviyasi muntazam o'qishni ma'qul ko'radi. Matn esa, o'z navbatida, nazariy ma'lumotlarni tashkil etadigan majmua hisoblanadi.

Ma'lumki, nutqiy faoliyat tilshunoslik, estetika, mantiq, falsafa tajribalariga tayanadi. Unda tarixiy ilg'am, intellektual salohiyat, tafakkur ma'rifati va qadriyaviy mezon o'zaro raqobatga kirishadi. Ijodiy, ijtimoiy va lingvistik formulalarning simmetrik uyg'unligi so'z botiniy mundarijasida «predmet» va «faoliyat» birlashuviga sharoit hozirlaydi. Binobarin, lug'aviy konstruksiya zahirasi ijodiy morfologiya estetik bosimi negizida muayyan xarakter kasb etadi. Matn nisbiy tugalligi, o'z navbatida, differensial sifat ko'rsatkichi darajalanishini tavsiflaydi. SHu ma'noda, og'zaki va yozma nutq takomili lug'aviy tushunchadan moddiy-ma'noviy shaklga o'tish miqyoslari bilan izohlanadi. Aynan, talaba ifoda uslubi morfologik va sintaktik xususiyatlarini to'liq mutlaqlashtirishi aslo mumkin emas. U filr yo'sinidan dunyoqarash xos darajasi qadar masofada erkin harakatlanadi

Insonning ma'naviyati, madaniyati va odob-axloqi uning tilida yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni yaqqol ko'rsatyaptiki, o'quvchi nutqi ravon emas, so'z boyligi ham kamroq.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini hayotning takomillashuvini shuningsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan-bir yo'li yosh avlodning o'qish va bilim ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida judda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni ma'naviy jihatdan o'stiradi, axloqiy barkamollikka eltadi. SHuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'lim tizimiga, yoshlari ma'naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e'tibor berilmoqda.

O'qishda malakasizlik, o'qish madaniyatini bilmaslik har qanday o'rganish jarayonini tinkani quritadigan og'ir mehnat va majburiyatga aylantiradi. O'qish va o'rganish malakasi muayyan darajada shakllangan kishi uchun esa, ushbu faoliyat zavq beradigan ijodiy faoliyatga aylanadi. Qiynayotgan ishning samaradorligini ta'minlaydi.

Maktab adabiy ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rganishning maqbul usullari va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda badiiy-estetik tushuncha va zavqni tarbiyalash, ularni kitobxonlikka o'rgatish kabi muammolar, (u) metodist olimlarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelayotgani ham xuddi shu sababdandir.

Bunday kamchiliklardan qutulishning birdan-bir yo'li ona tili darslarida o'quvchining mustaqil fikrini rag'batlantirib borish kerak.

Bola maktabga gapirishni bilgan holda keladi, lekin u o'qishning birinchi kunlaridan boshlaboq beriladigan yangi tushuncha, fikr, hissiyotni ifodalab berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Buning uchun uning so'z boyligi etishmaydi. Bola maktabga kelguncha, uning so'z boyligi bolalar bilan o'yin faoliyati uchun, shuningdek, uning talab va qiziqishlari oila doirasida bo'lib, ota-onalari va qarindoshlari bilan suhbatlashish uchun yetarli edi. Maktabda esa ko'pincha to'liq va keng javob berishga, o'qituvchi va sinf oldida so'zlashga to'g'ri keladi. Undan tashqari, maktabgacha bola o'z fikrini yozma holda ifodalagan emas. Bular yuzasidan malaka hosil qilishi uchun bola maxsus o'qishi, fikr yuritishga o'rgatilishi zarur.

Ona tilini mukammal o'qitish o'quvchilar nutq madaniyatini o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalarini, kishilarning mehnat faoliyatini kuzatadilar, o'rtoqlari bilan fikr almashadilar, o'qituvchi va boshqalarning adabiy til normalari asosidagi nutqlarini eshitadilar, kitob o'qiydilar, o'zlarini matn tuzadilar.

Bola maktabga kelgan dastlabki kunlardanoq og'zaki va yozma nutq qoidalarini, grammatikani o'rganadilar. Bu grammatik qoidalar o'quvchining nutq ko'nikma va malakasini o'stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ishi bilan bog'lab olib borilsa, adabiy nutqning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bulardan tashqari, o'quvchi nutqini o'stirish, lug'atini boyitish ustida ma'lum reja asosida va maqsadga muvofiq ish olib borish talab etiladi. Birinchi navbatda o'quvchilarni o'z fikrini to'g'ri ifodalay olishga o'rgatish lozim.

Barcha sinf mashg'ulotlarida, shu jumladan ona tili darslarida ham tilni amaliy jihatdan o'zlashtirib olinadi. O'quvchilar ertaklar aytadilar, o'qiganlarini qayta hikoya qiladilar, matn tuzadilar, uydagi va maktabdagisi ishlari haqida, o'yinlari, atrofdagi hayot haqida so'zlaydilar, ayrim narsalarni, voqealarni muhokama qiladilar.

Butun o`quv ishi jarayonida o`qituvchi o`quvchilarining so`zlarini to`g`ri talaffuz etishiga, urg`uni to`g`ri ishlatisiga, voqelikni aniq ifodalovchi so`z va ifodalarni tanlab, fikrni mazmun jihatdan to`g`ri tuza olishiga e'tibor berib, yo`l qo`ygan xatolarni to`g`rilab borishi katta ahamiyatga ega, ammo ularni nutq ustidagi yetarli ish deb bo`lmaydi. Ma'lumki, muhandis bino qurishdan avval, maqsaddan kelib chiqib, binoning qanday bo`lishi kerakligini ko`z oldiga keltiradi va uning loyihasini tuzadi, shunday keyingina qurilishi uchun zarur bo`lgan material to`plashga kirishiladi. Binoni loyiha bo`yicha chiroyli qilib qurish uchun quruvchi nafaqat g`isht tanlash va terishni bilishi, balki binoning qurilayotgan qismi qanday bo`lishi kerakligini ko`z oldiga keltirishi kerak. G`isht qanchalik chiroyli bo`lmasin va u qanchalik yaxshi terilmasin, loyihasiz yaxshi bino qurib bo`lmaydi. Matn yaratishda ham xuddi shunday, fikrning qaysi tarzda, og`zaki yoki yozma ifodalanishidan qat`iy nazar, o`quvchi, avvalo nima haqida va nima uchun gapirish, yozish kerakligini, ya`ni maqsadni yaxshi anglashi kerak. Maqsadga qarab tuzilajak matnning mavzusi belgilanadi va turi aniqlanadi. Matnlarni o`zining ifoda mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Rivoya matn. Bunday matnda biror narsa haqida ma'lumot berilishi, hikoya qilinishi yoki biror hodisaning tafsiloti tushuntirilishi mumkin.

Tavsifiy matn. Bunday matnda biror narsa (hodisa, kishi, buyum, manzara) tasvirlab (tavsiflab) ham berilishi mumkin. Matnda shuningdek, biror bir narsa (shaxs), uning faoliyati (holati) haqida mulohaza yuritilishi, biron fikr isbotlanishi mumkin.

Axborot-matn. Bunda esa bo`lib o`tgan voqeа-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Bunday matnda so`zlarning ko`chma ma'nolaridan, tilning badiiy-tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi, voqeа-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

Ijodiy-tafsifiy matn. Bunda so`zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqeа-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Ma'lum voqeа-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir.

REFERENCES

1. Ahmadjanova M., Mamatqulova D. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining og`zaki va yozma nutqini o`stirish tizimi.//Molodoy uchyonyiy №4. Nauchniy jurnal. Mejdunarodaya konferensiya. – M., 2019. – S. 124-129
2. Pavlov I.P. Poln. Sobr. soch. T. 3. kn. 2. – M.: 1977. – S. 325.
3. Ganelin SH.I. Didakticheskiy printsip soznatelnosti. – M.: Izd-vo Akademii pedagogicheskix nauk RSFSR, 1961. – S. 12.